

## HADIS ILMI VA UNING AHAMIYATI

**Abduxalilova Zarina**

Namangan davlar pedagogika instituti, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, texnologik ta'lim yo'nalishi,  
TXT BU 24 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20200705>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola islom ilmlari tizimida alohida o'rin tutuvchi hadis ilmining mohiyati, rivojlanish tarixi va uning diniy-huquqiy hamda ma'naviy ahamiyatini tahlil qiladi. Hadislar islom shariati uchun Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi asosiy manba hisoblanib, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) sunnatlarini asrab-avaylashda muhim vazifani o'teydi. Maqolada hadis ilmining asosiy metodologiyasi bo'lgan isnod (rivoyatlar zanjiri) va matn (rivoyat mazmuni) tanqidi qoidalari, shuningdek, muhaddislarning hadislarini saralashdagi mashaqqatli mehnatlari yoritilgan. Tadqiqot doirasida hadis ilmining bugungi kundagi ahamiyati, xususan, ekstremistik g'oyalar va notog'ri talqinlarning oldini olish, shuningdek, islomiy qadriyatlarni xolis va ilmiy asosda anglashdagi o'rni dolzarb masalalar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi

**Kalit so'zlar:** Hadis ilmi, Sunnat, Isnod, Matn tanqidi, Sahih, Muhaddis, Manbashunoslik, Islomshunoslik, Ma'naviy meros, Isroiliyat

Butun borliqni yaratib, shular ichidan insoniyatni o'zining tavfiqi va hidoyatiga loyiq ko'rgan Alloh taolaga bitmas – tunganmas hamdu sanolar bo'lsin. O'z ummatlariga Robbisi amri ila hikmatni o'rgatgan Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamga mukammal batamom salovotu salomlar bo'lsin. U kishining suhbatlarida bo'lib, hadislarini va sunnatlarini Islom ummatlariga yetkazgan sahobalariga Allohning roziligi bo'lsin. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarini va hadislarini to'plash, o'rganish va tadqiq etishda o'z xizmatlarini ayamagan barcha imomlar, muhaddislar va ulamolarga Alloh taoloning behisob rahmati bo'lsin.

Avvalo yurtimizda hadis ilmiga berilayotgan etiborni qayd etish lozim bo'ladi. Zero Turli mafkuraviy xurujlar avj olayotgan bugungi kunda yurtimizdan yetishib chiqqan alloma va mutafakkirlarimizning ma'naviy merosini chuqur o'rganish, ulardagi ezgu g'oya va ta'limotlarni xalqimizga yetkazish va shu asosda yoshlarda sog'lom dunyoqarashni kuchaytirish, ularni azaliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Prezidentimiz 2017 yil 19 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida dolzarb mintaqaviy va global muammolar yechimi yuzasidan fikrlar bildirar ekan, jumladan, butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazish, uni zo'ravonlik va qon to'kish bilan tenglashtirmaslik zarurligi, Markaziy Osiyoning islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ko'plab yorqin namoyandalari, jumladan Imom Buxoriy boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida tarbiyalash, yoshlarni zo'ravonlik g'oyasi "virusi" dan himoya qilishni eng muhim vazifalar sifatida ta'kidlagan edi.

Yurtimizda barcha sohalar qatori diniy-ma'rifiy yo'nalishda ham ulkan islohotlar, xususan, muqaddas islom dinini o'rganish, ajdodlar merosini qayta tiklash va ularni kelajak avlodlarga asl holicha yetkazish bo'yicha keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbuslari bilan buyuk ajdodlarga munosib vorislarni tayyorlash maqsadida yurtimizda diniy ta'lim tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan buyuk muhaddislar Imom Dorimiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abdulloh ibn Muborak, Ibn Hibbon, Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad Barokotiy, Ibrohim ibn Ma'qil Nasafiy va Abd ibn Humayd Keshiyar tomonidan hadis maktablariga asos solingan bo'lib, ushbu ilmu ma'rifat va ziyo maskanlari hadis ilmi rivoji hamda dunyo ilm-fan taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan.

"Hadis ilmining sultoni" nomini olgan buyuk vatandoshimiz Imom Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" kitobi musulmon dunyosida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, islom dini e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi.

Buyuk allomalarimiz asos solgan hadis ilmi anta'analarini qayta tiklash va rivojlantirish, ular qoldirgan boy ilmiy merosni o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida Hadis ilmi maktabi tashkil etildi.

Hadis ilmi maktabida Qur'on karim, fiqh, aqoid, tafsir, islom tarixi, arab tili va boshqa fanlar bo'yicha chuqur bilimlar berilishi bilan bir qatorda, hadis va unga oid ilmlar o'rgatiladi.

Jumladan, "Hadis", "Mustalahul hadis" (Hadis istilohlari), "Hadis va sharh", "Ahkomul-hadis" (Hukm olinadigan hadislar sharhi), "Jarh va ta'dil" (Roviylarni holatlari to'g'risidagi fan), "Taxrij va dirosatul asonid" (Hadis isnodlarini chiqarish va o'rganish), "Ilalul hadis" (Hadis illatlari va uni zaif qiluvchi sabablar) kabi mutaxassislik fanlari o'qitiladi.

Albatta mutaxassislik fanlari qadimgi Samarqand, Buxoro diniy ta'lim tizimi anta'analariga muvofiq tarzda, yurtimizda ming yillar davomida o'qitilib kelingan mo'tabar darslik va o'quv kitoblari asosida o'rgatiladi.

Shuningdek, Hadis ilmi maktabi bitiruvchilari respublikadagi diniy ta'lim muassasalarida hadis va unga oid fanlardan dars berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy diniy ta'lim muassasasi hisoblangan Hadis ilmi maktabi istiqbolda musulmon mamlakatlaridagi Hadis maktablari bilan raqobatlasha oladigan ta'lim maskaniga aylanishiga, qadimdan hadis ilmi hamda muhaddislar markazi bo'lib kelgan Movarounnahrning avvalgi shon-shuhratini qayta tiklashi va rivojlantirishiga umid qilamiz.

Xabaringiz borki, Islom dinining asosiy manbalarining eng sharaflisi Qur'oni karim bo'lsa, undan keyingi darajada hadis va unga taalluqli ilmlar turadi. Payg'ambar alayhissalomning sunnatlari Qur'oni karimning mufasssiri hamda uning maqsadlarini sharhlovchi bo'lganligi uchun Islom ulamolari hadisi shariflarni katta ahamiyat bilan o'rgandilar

Zero, Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam Qur'oni karimni bayon qilib yetkazuvchi ekanligini Alloh taolo quyidagicha marhamat qilgan:

44 " وَأَنْزَلْنَا إِلَيْكَ الذِّكْرَ لِتُبَيِّنَ لِلنَّاسِ مَا نُزِّلَ إِلَيْهِمْ وَلَعَلَّهُمْ يَتَفَكَّرُونَ "

«... sizga esa odamlarga nozil qilingan narsalarni (ya'ni, shariat ahkomlarini) bayon qilib berishingiz uchun va shoyad tafakkur qilsalar, deb bu eslatma — Qur'onni nozil qildik» (Nahl surasi, 44-oyat).

Bugungi qaltis va tahlikali zamonda, xususan, tolibi ilmlarning, umuman olganda, xalqimizning hadis ilmi hamda unga bog'liq bo'lgan fanlarni o'rganishga juda katta ehtiyojlari mavjud. Chunki ba'zi bir yetarli ilmga ega bo'lmagan, xatto umuman arabiy savodi yo'q kishilar, mustahkam manbaga asoslanmagan, yuzaki, hech bir mas'uliyatni, gunohni o'ylamay, so'ralgan masalaga o'ylanmay, ikkilanmay o'zlaricha javob aytadigan bo'lib qolganlari achinarli bir holdir. Zero, Abdulloh ibn Amr Roziyallohu anhudan rivoyat qilingan bir muborak hadislarida Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam:

Abdulloh ibn Amr Roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rosululloh sollallohu alayhi vasallam "Kim mening nomimdan qasddan yolg'on to'qisa, do'zaxdan joyini tayyorlab olaversin", deganlar.

Ko'rinib turibdiki, dinimizning asoslaridan biri bo'lgan hadislarga bo'lgan e'tiborimiz va hurmatimiz o'z yuqori darajada bo'lmog'i darkor.

Shu o'rinda hadis va sunnatning ma'nolari haqida to'xtalib o'tsak.

Sunnat va hadis bir-birining o'rnida ishlatilib kelingan istilohdir. Hadis xosroq, sunnat umumiyroq ko'rinadi.

"Hadis" arab tilida lug'at etiboridan "gap, so'z" ma'nosini anglatadi.

Istelohda esa Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak gapirgan so'zlari, bajargan fe'llari yoki biron fe'lni bajarganda bu fe'ldan rozi bo'lganliklari yohud sukutlari va sifatlarining ifodasidir. Bularning hammasi hadis bo'lib, shar'iy hukm hisoblanadi.

Hadis – gaplashish va biror narsaning xabarini berish ma'nosida kelgan bayon va ifodaning nomidir. Keyin Rasululloh (s.a.v.)ning gapirgan gaplari, bajargan fe'llari, biror masaladagi roziliklari yoki sifatleri hadis, deyilgan.

Sunnat asl e'tibori bilan hadis lafziga barobar emas.

"Sunnat" arab tilida lug'at etiboridan «tariqat, ma'naviy yo'l» ma'nosini anglatadi. Masalan Falonchining sunnati degani uning hayotiy yo'li, deganidir. Shundan kelib chiqib, Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari, deganda tariqatlari, yo'llarini tushunamiz.

Istilohda quyidagicha ta'rif qiladilar: «Payg'ambar Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamdan asar bo'lib qolgan gap, ish, taqrir, xalqiy (tana tuzilishi), axloqiy sifatlar va tarjimayi holga tegishli ma'lumotlarga "sunnat", deyiladi».

Muhaddis ulamolarning fikricha, hadis va sunnat Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak gapirgan so'zlari, bajargan fe'llari yoki biron fe'lni bajarganda bu fe'ldan rozi bo'lganliklari yohud sukutlari va sifatlarining ifodasidir. Bularning hammasi hadis bo'lib, shar'iy hukm hisoblanadi. Ammo bu ikki lafz, ya'ni hadis va sunnatlarning lug'aviy ma'nolariga e'tibor berilsa, lug'at va istiloh jihatidan ishlatishda farqlari bordir.

Bu ikki lafz tushuncha orasidagi ana shu farq tufayli ba'zi muhaddislar: "Bu hadis qiyosga, sunnatga va ijmo'ga ziddir", deyishgan. Bu ikkala so'z orasidagi bir-biriga o'xshashlikni ana shunday ifoda va iboralar mazmunidan tushunamiz.

Xulosa o'rnida yuqorida Prezidentimizning hadis ilmi borasida olib borgan islohotlarini zamirida yurtimizda yashab turgan xalqimizning tinch-totuv yashashi yotadi albatta. Shunday ekan buni qanday qilib o'z hayotimizga tadbiiq eta olamiz? Ya'ni hadislarning tarbiyaviy jihatlarini qanday ajratib olamiz. Keling shu xususda bir mulohaza yuritsak. Teran nazar bilan qaraydigan bo'lsak muammoli va og'riqli nuqtalarimiz mavjud.

Qarindoshlar orasida silai rahm tobora ko'tarilib bormoqda bu esa o'z navbatida o'zaro birdamlikka putur yetkazuvchi omillardan biridir. Qarindosh urug'chilik rishtalarini bog'lash vojib darajasidagi ishdir uni uzib yuborish ham gunoh sanaladi.

Islomshunoslik akademik o'rganishdir Islom kabi tegishli sohalarga o'xshash Yahudiyshunoslik va Qur'onshunoslik. Islomshunoslik Islom dunyosining o'tmishi va potensial kelajagini tushunishga intiladi. bu ko'p tarmoqli dasturida, turli sohalarda olimlar (tarix, madaniyat, adabiyot, san'at) ishtirok va o'rganish alohida sohasida oid fikr almashishi Aksariyati sharqshunos ustozlar bilan birga o'qigan Islomshunoslik olimlarining avlodlari Sharqshunoslik va Dinshunoslik o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam berishdi. Bu harakat chiqib o'sdi subfield "Islomiy tadqiqotlar deb ataladi." Islomni o'rganish G'arb akademiyalarida taxminan ikki

asr oldin professional miqyosda boshlangan va ilgari ijtimoiy tashvish bilan bog'liq bo'lgan an'analarning bir qismidir. ushbu akademik an'ana nafaqat bilimlarning to'planishiga olib keldi, hatto ularning ba'zilari deyarli unutilgan yoki yomon e'tiborsiz qoldirilgan bo'lsa ham, Islom manfaatlari, savollari, usullari, estetikasi va axloqida katta o'zgarishlarga guvoh bo'ldi.

Ko'pgina akademik Islomshunoslik dasturlariga Islomni tarixiy o'rganish, Islom tsivilizatsiyasi, musulmon dunyosi tarixi, tarixshunoslik, Islom huquqi, Islom ilohiyoti va Islom falsafasi kiradi. Islomshunoslik bo'yicha mutaxassislar yozilgan matnlarni batafsil, akademik o'rganishga e'tibor berishadi Arabcha sohalarida Islom ilohiyoti, Islom huquq va Qur'on va hadis kabi yordamchi fanlar bilan bir qatorda Tafsir yoki Qur'on Tafsiri. Shu bilan birga, ular ko'pincha Injil tadqiqotlari va klassik filologiyadan tortib zamonaviy tarix, huquqiy tarix va sotsiologiyaga qadar bir nechta yordamchi sohalarga moslashtirilgan usullarni qo'llaydilar.

#### Umumiy ma'lumot

Islomshunoslik sohasidagi olimlarni ko'pincha " islomchilar " deb atashadi va intizom an'anaviy ravishda Sharqshunoslik deb ataladigan narsalarning asosiy qismini tashkil qiladi. Islomchilarning o'tish davri avlodi islomshunoslikda Sharqshunoslik hukmronlik qilgan davr o'rtasida va o'rtasida bo'lgan Sharqshunoslikdan keyingi davr mustamlakachilikdan keyingi tanqid va tanqidiy nazariya ijtimoiy fanlar va ko'plab diniy tadqiqotlar. Darhaqiqat, ba'zi an'anaviy G'arb universitetlari hali ham Arab va Islomshunoslik bo'yicha "Sharqshunoslik" asosiy nomi ostida ilmiy darajalar berishadi. Bu, masalan, Oksford universitetida, klassik Arab va Islomshunoslik 16-asrdan boshlab, dastlab ilohiylikning kichik bo'limi sifatida o'qitilgan. Ushbu so'nggi kontekst dastlabki akademik islom tadqiqotlariga Bibliyadagi tadqiqotlar xarakterini berdi va shuningdek, zamonaviy zamonaviy G'arbiy Evropada intizom asosiy maqsadi Islom qoidalarini rad etish bo'lgan cherkov a'zolari tomonidan ishlab chiqilganligining natijasi edi. Bugungi kunda akademik Islomshunoslik odatda Arab tilini keng o'rganish bilan bir qatorda yoki undan keyin o'qitiladi va o'rganiladi.

#### References:

1. Uyg'un G'afurov. Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti rektori. <https://kknews.uz/oz/30160.html>
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. T: Sharq nashriyoti, 2009. B:272
3. Ahaddisul-Nabaviyyah al-mukhatarah. Mualliflar jamoasi. T: Movarounnahr nashriyoti, 2013. B:38
4. Imom Buxoriy. Sahih al-Buxoriy, 5988 hadis.
5. Ibn Hajar al-Asqoloniyy (Ahmad ibn Aliy ibn Hajar al-Asqoloniyy). Fath al-Boriy sharh sahih al-buxoriy. Maktabat al-Islomiyya, 10-juz, B: 462.